

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 21 725,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 109,6% ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,7 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>18 369,5</b>	<b>21 725,2</b>	<b>107,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 880,0	21 299,8	107,8
mahsulotlarga sof soliqlar	489,5	425,4	111,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>17 880,0</b>	<b>21 299,8</b>	<b>107,8</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 741,3	6 684,9	103,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 837,4	6 047,4	114,2
sanoat	3 495,6	4 390,9	112,1
qurilish	1 341,8	1 656,5	119,7
xizmatlar	7 301,3	8 567,5	107,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 375,5	2 791,7	108,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	769,5	1 020,9	118,6
boshqa xizmat tarmoqlari	4 156,3	4 754,9	103,9

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 065,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,8 % ga yuqoridir.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2024- yil	2025- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	98,0
mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	2,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>32,1</b>	<b>31,4</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>27,1</b>	<b>28,4</b>
sanoat	19,6	20,6
qurilish	7,5	7,8
<b>xizmatlar</b>	<b>40,8</b>	<b>40,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,3	13,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,3	4,8
boshqa xizmat tarmoqlari	23,2	22,3



2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 31,4 % ni, sanoat tarmog‘i 20,6 % ni, qurilish 7,8 % ni va xizmatlar sohasi 40,2 % ni tashkil qildi.


## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,3 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,4 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,8 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 3,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.) ga ko'paydi.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 31,4 %), sanoatda – 112,1 % (20,6 %), qurilishda – 119,7 % (7,8%), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (40,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,8 % (13,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,6 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,9 % dan (22,3 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



7,1 %

YAHM

7,9 %



3,3 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

3,5 %



8,3 %

Sanoat

12,1 %



9,5 %

Qurilish

19,7 %




9,8 %

Xizmatlar

7,1 %

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 109,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,5 % va sanoatda – 112,1 % qayd etildi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 14 670,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 12 535,8 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 68,9 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 70,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2024- yil

12 535,8

70,1 %

2025- yil

14 670,5

68,9 %

